

MARATHA IMPERIYASINI TASHKIL TOPISHI VA KEYINGI SIYOSIY JARAYONLAR

Rahimjonov Fayozbek Mirkomil o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

rahimovfayozbek08@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Marathalar imperiyasining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixi, mintaqada tutgan o‘rnini ochib berish, yuzaga kelgan tarixiy jarayonlarni yanada chuqurroq ochib berish masalalari xorijiy tadqiqotlar tahlilida taqdim qilinadi.

Kalit so‘zlar: Maratha, Hindiston, Dekan, Maharashtra, Mo‘g‘ul.

ABSTRACT

In this article, The political, social, economic and cultural history of the Maratha Empire, its role in the region, and the issues of deeper disclosure of the historical processes are presented in the analysis of foreign studies.

Key words: Maratha, India, Deccan, Maharashtra, Mongolia.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Hozirgi globallashgan zamonda tarixning turli masalalarini o‘rganish ustuvor masala sifatida talqin qilinmoqda, xususan tarixiy tajribalarning keng miqiyosda bilish, ulardan kerakli xulosalarni chiqarilishi esa o‘z navbatida ushbu soha vakillari uchun eng kerakli unsur hisoblanadi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada, olis va yaqin o‘tmishimizdagi ko‘pgina voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda” – deb ta’kidlaydi [1:464]. Darhaqiqat jahon tarixida yuz bergen jarayonlar va ularning insoniyat hayotiga qilgan ta’sirlarini chuqur anglash hamda xulosa chiqara bilish tarixchi uchun kerakli unsurdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Ushbu ilmiy ishimiz doirasida biz Xorijiy adabiyotlarning ayrim asarlaridan foydalangan holda mavzuyimizning mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz hamda ish doirasida asosan o‘zbek o‘quvchilar uchun holisona fikrlarimizni taqdim etib boramiz. Mavzuning mohiyatini ochishda asosan Oxford University press nashri tomonidan tavsiya etilgan mavzuga oid adabiyotlardan foydalanamiz.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Maratha siyosatining fazoviy asosini tushunish uchun ushbu kurs ishi davomida juda ko‘p foydalilanligi bir nechta muhim atamalar mavjud. Ulardan eng muhimi Dekan va Maxarashtra. "Janubiy" deb tarjima qilinadigan Dekan eski atama bo‘lib, Hind tarixi an‘anaviy adabiyotida va Mahabharatada Dakshinapata sifatida uchraydi. Ushbu atama Tapti daryosi ostidagi hududni anglatardi bu hudud doimiy bosqinchilikni amalga oshirish uchun qulay geografik hudud bo‘lgan [2:15].

Tarix davomida "Dekan" asosan bosib olinuvchi hudud sifatida talqin qilinib, shimoliybosqinchilar uchun asosiy bosqin qilish hududi sifatida talqin qilindi. Butun tarixiy davr mobaynida Taptidan Godavarigacha bo‘lgan hudud tez-tez shimoliy imperiyalarga qo‘shilgan va undan janubdagagi Godavari va Krishna o‘rtasidagi hudud sifatida Dekanga aylangan. Shu ma’noda, men Dekan atamasini qat’iy joy sifatida emas, balki faqat o‘zaro bog‘liqlik atamasi, shimoliy qirollikning janubiy chegarasidan tashqaridagi hudud sifatida ishlataman.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki yuqorida nomi tilga olingan atamalarning qaysi joyga oid ekanligini aniqlash ancha murakkab bo‘lib, bu hudud ko‘pincha o‘zgarib turgan hamda turli tarixiy adabiyotlarda turchi tasvirlangan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

"Maharashtra" atamasini aniqlash esa nisbatan ancha oson masala. Maharashtra hududi shunchaki maratxi tili ustunlik qiladigan hudud sifatida talqin qilinadi. Maxarashtra ayni bir hudud sifatida eramizning birinchi asridan boshlab tilga olingan, ammo VII asrga oid yozma dalillarga qadar mintaqaning aniq hududini taxmin qilish mumkin emas. Xitoylik buddist ziyoratchi Xuan Tsangning hikoyasida ushbu termin “Ma ho leska” (Maharashtra) shaklida bayon qilinadi. Miloddan avvalgi 800 yildan 1300 yilgacha bo‘lgan Marathi tilining keyingi rivojlanishi bilan biz ushbu til qay darajada kengayganini bilish orqali, “Maharashtra” hududini aniqlashga harakat qilamiz [3:16].

Masalan, avliyo Chakradxara marati tilida so‘zlashadigan mintaqalar bo‘ylab sayohat qilib, sartarosh sifatida o‘z dinini targ‘ib qilgan va o‘z hunari bilan shug‘ullangan. Marati tilining chegarasi va hududi aynan shu shaxsning esdalik yozuvlari hamda sayohat qilgan hududlari bilan chegaralanadi.

Maratha imperiyasi. XVII asrda tashkil topib qisqa muddat ichida taraqqiyotining yuksak cho‘qqisiga yetishdi. XVIII asrga kelib Hindiston yarimorolining katta qismini egallab, amalda hukmronlik qilganlar. Marathalar asosan Hindistonning hozirgi Maxarashtra shtatidan bo‘lgan marati tilida so‘zlashuvchi jangchilar guruhi bo‘lganlar.

Sulola asoschisi Shivaji 1630 - yil fevral oyida tug‘ilgan. U Shohji Bhonsle va harbiy sarkarda Jijabayning ikkinchi o‘g‘li bo‘lib, Pune tumanining shimoliy qismidagi Shivneri tepalik qal‘asida tug‘ilgan. Eslatib o‘tamiz, Shivajining bolaligining bu yillari Maxarashtra da, xususan Pune mintaqasida doimiy urush va ocharchilik yillari edi. Shivajining otasi Shohji, qisqa muddat mo‘g‘ullar xizmatidan chiqqan isyonchi edi va Mo‘g‘ul qo‘shini uni Ghatlar orqali va Konkangacha ta‘qib qildi. Mo‘g‘ullarga qarshi boshqa yurishlar sodir bo‘ldi, ammo Bijapur tomonidan kuchaytirilgan Shohji kuchlari Mog‘ullarga qarshi umuman muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bu orada Shivaji va uning onasi qal‘adan qal‘aga ko‘chib sarson kun kechirdilar. [4:120].

Onasining oilasi Mo‘g‘ul tomoniga o‘tgan shu sababli onasi va o‘g‘li Shohjini kam ko‘rishgan. Faqat 1636 - yilda, Shohji Bijapur bilan birlashgandan keyingina, Shivaji va uning onasi Punega joylashishga muvaffaq bo‘ldi.

1647-yilda Shivajining jogir boshqaruvchisi Dadaji Kondrev vafot etdi va Shivaji yosh bo‘lishiga qaramay amaldagi boshqaruvni egalladi. Uning birinchi harakatlaridan biri bevosita Bijapuri hukumatiga qarshi chiqishi bo‘ldi. Shivaji hiyla yo‘li bilan Torna qal‘asini egallab oldi hamda u yerda topilgan katta xazinani tortib oldi. Keyingi ikki yil ichida Shivaji Pune yaqinidagi yana bir muhim qal‘ani egalladi, u shaharga olib boradigan shimoliy yo‘lni qattiq nazoratda ushladi, bu ish uni qarshi tomonning qilinishi mumkin bo‘lgan hujumlarga javob qaytarish imkonini berar edi. Ayni paytda u Tornadan topilgan pulni Tornadan besh mil sharqda, tepalikning ustida yangi qal‘a qurish uchun ishlatgan. U uni Raigad deb nomladi va bu joy o‘n yildan ortiq vaqt davomida uning poytaxti bo‘lib xizmat qildi [5:19].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda Hindiston tarixida qisqa vaqt hukmronlik davomida katta natijalarga erishgan ammo uni barchasini ikki asrdayoq yo‘qotgan Maraxashtra davlati o‘z siyosatini yuritishda katta xatolarga yo‘l qo‘ymagan bo‘lsada siyosiy jihatdan hom ekanliklari, diplomatik salohiyatlarini deyarli yo‘q ekanligini amalda ko‘rsatdilar. Aynan shu jihat mamlkatning nixoyasini belgilab berdi. Sambhaji davriga nazar solsak, Boburiy Imperator Avrangzeb bilan olib borilgan qarama-qarshilik jarayonlarida ham Maratha hokimiyati vakillari o‘zlarining hom ekanliklarini ko‘rsatdilar, garchi mamalakat harbiy jihatdan yuksak salohiyatga ega bo‘lsada diplomatik munosabatlar siyosiy vaziyatlarning yo‘nalishini katta tezlikda o‘zgartirib yuborishini hammamiz yaxshi anglaymiz. Ahmadnagar, Bijapur qirolliklari bilan qulay diplomatik

munosabatlar, katta siyosiy bosim, harbiy kuchlarning nisbatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olgan Boburiylar vaziyatni o‘z manfaatlariga o‘zgartirganliklarini hammamiz guvohi bo‘ldik. Keyingi davrlar ham shunday alkashliklarni o‘z ichiga olgani sababli ham mamalakat inqirozi tezlashdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev, Sh.M.(2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. O‘zbekiston.
2. S. M. Alam, "The historic Deccan: a geographical appraisal," in V. K. Bawa (ed.) Aspects of Deccan History: Report of a Seminar. - Hyderabad, 1975. - 389 p.
3. Andre Wink. Land and Sovereignty in India: Agrarian Society and Politics under the Eighteenth-century Maratha Svarajya. - Cambridge, 1986. - 320 p.
4. Barrow I. The East India Company, 1600–1858. – B.: Hackett Publishing Company, 2017. –480 p.
5. Brij Kishore, Tarabai and her Times. - Bombay, 1963 – P. 656 p.
6. Charles J . Bennett, "The morphology of language boundaries: Indo-Aryan and Dravidian in peninsular India," in David E. Sopher (ed.), An Exploration of India: Geographical Perspectives in Society and Culture. - Ithaca, 1980. – 550 p.
7. Dirks N. B. The Hollow Crown: Ethnohistory of an Indian Kingdom. - Cambridge, 1987. - 420 p.
8. Dighe V. G. Peshwa Bajirao I and the Maratha Expansion. - Bombay, 1944. – 450 p